



## “Hayot eshik ortida” dramatik asarining mazmun-mohiyati va badiiy g‘oyasi

**Mansurova Muborak**

Nizomiy nomidagi O‘zMPU

Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti ta‘im yo‘nalishi

4-bosqich 401-guruh talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqolda Salohiddin Sirojiddinovning “Hayot eshik ortida” asarining badiiy mohiyati va jamiyatdagi illatlarni ochib berishga qaratilgan badiiy maqsad haqida gap ketadi. Asarning mazmun mohiyati va obrazlarning xarakteri, ijtimoiy ongsizlik, insonlarning nafsig qulligi va bularga qarshi qurashishga yagona shoir harakatlarining badiiy tasvirlanishi ilmiy jihatdan tahlilga tortiladi.

**Kalit so‘zlar:** dramatik asar, hayot mazmuni, oila, mahalla, nafs, ruhiy holat, ramz.

Inson hayoti murakkab, ziddiyatlarga boy va turli sinovlardan iborat jarayondir. Har bir inson hayot davomida tanlovlar qiladi, xatolarga yo‘l qo‘yadi, ba‘zan esa kech anglangan haqiqatlar qarshisida qoladi. “Hayot eshik ortida” dramatik asari ana shunday hayotiy masalalarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, inson taqdiri, oilaviy munosabatlar va ma‘naviy qadriyatlar masalasini yoritadi. Ushbu asar tomoshabinni va o‘quvchini hayotning asl mohiyati, insoniylik hamda mehr-oqibat haqida chuqur mushohada yuritishga undaydi.

Asarda voqealar inson qalbidagi ichki kechinmalar, ruhiy iztiroblar va hayotiy qarama-qarshiliklar asosida rivojlanadi. Muallif qahramonlar hayoti orqali oddiy ko‘ringan muammolarning aslida inson taqdiriga qanchalik katta ta‘sir ko‘rsatishini ochib beradi. Baxtiyorjon va Tabassumxonning o‘n yildan oshiq turmushi davomida boriga shukr qilib, ayol erining shoir tabiatiga ko‘nib yashagani, oila tinchligidagi sabrlari, mo‘jizaviy “Oq momo”ning va‘dasiga ko‘ra ayollarga xos bo‘lgan ichki va tashqi fazilatlar ustunligi sababli Tabassumxon oiladagi halovatni buzadi. Natijada bu mo‘jiza haqida qo‘shnisi va mahalla raisi xabar topadi. Baxtiyorjonning uch tilagi atrofda ochko‘z, mansabparast insonlarga kamlik qilgani, boriga shukr emas, yanayana deydigan, nafsig qul va ko‘zi ko‘r insonlar faqatgina Baxtiyorjonning atrofida emas, balki jamiyatda minglab topilishi aytib o‘tilgan. Har bir obraz o‘z xarakteri, dunyoqarashi va hayotga bo‘lgan munosabati bilan ajralib turadi. Shu jihatdan dramatik asar nafaqat voqealar rivoji, balki qahramonlarning ruhiy olamini tasvirlash orqali ham e‘tiborni tortadi.

Asarning asosiy g‘oyalaridan biri – insonning o‘z hayoti uchun javobgar ekanligidir. Ba‘zan inson o‘z baxtsizligi sababini boshqalardan yoki taqdirdan izlaydi. Ammo asarda baxt va muvaffaqiyat, avvalo, insonning o‘z qarorlari, irodasi va hayotga munosabatiga bog‘liqligi ta‘kidlanadi. Inson o‘z tanlovlari orqali kelajagini shakllantiradi. Shu bois asar qahramonlari boshidan kechirgan voqealar orqali har bir qarorning oqibati borligi ko‘rsatib beriladi. Aks xolda Baxtiyor ham Tabassumxon ham

o'z tanlovlarini amalga oshirish jarayonida bu qadar kelishmovchiliklarga yetib kelishmasdi.

Asarda oilaviy munosabatlar alohida o'rin tutadi. Oila inson hayotidagi eng muhim maskan, ma'naviy tayanch sifatida tasvirlanadi. Ammo ba'zan tushunmovchilik, e'tiborsizlik yoki mehr yetishmasligi oiladagi muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Muallif ana shu holatlarni dramatik vaziyatlar orqali ochib beradi. Bu esa o'quvchini yaqin insonlarini qadrlash, ular bilan samimiy munosabatda bo'lishga undaydi.

“Hayot eshik ortida” nomi ham ramziy ma'noga ega. Eshik bu yerda hayotdagi yangi bosqich, tanlov yoki yashirin haqiqatlar timsoli sifatida talqin qilinadi. Inson ko'pincha o'ziga noma'lum bo'lgan, hali anglab yetmagan haqiqatlar qarshisida turadi. U bu “eshik”ni ochishi yoki ortga qaytishi mumkin. Muallif aynan shu obraz orqali hayotda jasoratli bo'lish, sinovlardan qo'rqmaslik va haqiqatni tan olish zarurligini ifodalaydi.

Salohiddin Sirojiddinov asarning yana bir muhim jihatini real hayot manzaralarida aks ettiradi. Voqealar sun'iy emas, aksincha kundalik hayotda uchraydigan muammolar va insoniy holatlarga yaqin tasvirlangan. Ayollarga chet el mebellari, texnikalar, pardalar, farzandlari uchun alohida uy-joy va moshinalar va hokazolar. Bu chetdan qaraganda kulguli va achinarli. Chunki ular o'zlari uchun baxt, farzandlari uchun omad so'rashlari yoki umuman olganda ma'naviy boyliklarni so'rashi ham mumkin edi. Baxtiyorjonning yolg'iz idrok etgan qahramon sifatida olsak, butun oila mahallaga uning o'zi yetarli emas edi. Shu sababli asar o'quvchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi va unda o'z hayoti haqida o'ylash istagini uyg'otadi.

Asar yakunida Baxtiyorjon taslim bo'ladi. Lekin uning ayoli turmush o'rtog'ini tushuna boshlaydi. Aslida bu dunyoda barchasi o'tkinchi. Faqat va faqat insondan yaxshi nom, yaxshi amal qoladi. Bu qadar dunyoga berilish, oila tinchligini arzimagan narsalarga almashish bu o'ta ketgan ahmoqlik. Asli hayot eshik ortida, jannatda ekanligi o'quvchi uchun ochib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, “Hayot eshik ortida” dramatik asari inson ruhiyati, hayotiy tanlovlar va oilaviy qadriyatlarni, insoniy tuyg'ular yorituvchi chuqur mazmunli asardir. Asar insonni o'z hayotiga mas'uliyat bilan qarashga, yaqinlarini qadrlashga, vaqtning qadriga yetishga va ma'naviy boyliklarni unutmazlikka chorlaydi. Shu jihatdan ushbu dramatik asar bugungi kun o'quvchisi uchun ham dolzarb va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sirjiddinov S. Hayot eshik ortida. (Mutolaa) 2025
2. <https://scientific-jl.com/luch/article/download/632/591/1184>
3. <https://ziyouz.uz/videoteka/salohiddin-sirojiddinov-hayot-eshik-ortida-spektakl/>